

ARAB MAG'RIBI DAVLATLARIDA SIYOSIY JARAYONLAR VA IJTIMOIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Karimov Farxod Erkinovich,

O'zXIA Xalqaro munosabatlar kafedrası professori,

Rasulov Otabek Abdulazizovich

O'zXIA Xalqaro munosabatlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Arab Mag'ribi davlatlari — Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunisdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaning geosiyosiy ahamiyati, siyosiy tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari, davlat boshqaruvi shakllari, diniy omilning siyosiy jarayonlarga ta'siri hamda avtoritarizm va demokratlashtirish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Arab bahori voqealari, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya jarayonlari, gender tengligi, korrupsiya muammolari va ularning mintaqada davlatlaridagi siyosiy barqarorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida Arab Mag'ribi mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy rivojlanish ko'p omilli jarayon ekanligi, unda tarixiy meros, iqtisodiy sharoitlar, diniy qadriyatlar hamda tashqi siyosiy ta'sirlar muhim rol o'ynashi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Arab Mag'ribi, Shimoliy Afrika, siyosiy tizim, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Arab bahori, migratsiya, iqtisodiy tengsizlik, korrupsiya, gender tengligi, demokratlashtirish, davlat boshqaruvi, geosiyosiy jarayonlar.

KIRISH

Arab Mag'ribi davlatlari - Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunis geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, Afrika, Yevropa va Yaqin Sharq chorrahasida joylashgan bu mintaqa global xavfsizlik, savdo va diplomatiyada muhim rol o'ynaydi. Uilyam Zartman ta'kidlaganidek, Arab Mag'ribining strategik joylashuvi uni mustamla-kachilik davridan tortib zamonaviy xalqaro munosabatlarga bo'lgan tarixiy raqobat maydoniga aylantirdi¹. Mintaqada Yevropa va Sahroi Kabir janubidagi Afrika o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, xalqaro migratsiya siyosati, global transport-logistika va iqtisodiy hamkorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy jihatdan, Arab Mag'ribi mamlakatlari katta tabiiy boyliklarga ega, xususan Jazoir va Liviyada neft hamda gaz, Marokashda esa fosfat zaxiralari mavjud. Ushbu resurslar mintaqaning siyosiy tizimiga ta'sir qilib, ko'pincha davlat

¹ I. William Zartman. Man, Estate and Society in the Contemporary Maghreb. Pall Mall Press, 1973, p. 576.

markazlashgan iqtisodiy siyosat olib borish va avtoritar boshqaruvni shakllanishiga olib keldi². Shu bilan birga, Marokash va Tunis iqtisodiy erkinlashtirish siyosatini olib borib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga harakat qilmoqda. Siyosiy jihatdan, Arab Mag'ribi Shimoliy Afrika va O'rta Yer dengizi xavfsizlik dinamikasida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, terrorizm, chegara xavfsizligi, migratsiya va Liviya hamda Tunisdagi siyosiy o'zgarishlar Yevropa va Afrika xavfsizlik siyosatlariga ta'sir ko'rsatadi³.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunisning boshqaruv tuzilmalari, siyosiy barqarorlik darajasi va diniy siyosatning ahamiyati jihatidan sezilarli farqlarga ega. Ushbu besh davlatning asosiy o'xshashligi arab va islom dunyosining bir qismi ekanligidir. Islom boshqaruv va huquqiy tizimda markaziy rol o'ynaydi. Ushbu davlatlarning konstitutsiyalarida islomiy tamoyillar aks ettirilgan, ba'zi hollarda Shariat qonunlari qonunchilikka ta'sir qiladi. Shuningdek, bu davlatlarning barchasi mustamlaka boshqaruvidan o'tgan: Jazoir, Tunis, Mavritaniya va Marokash Fransiya hukmronligi ostida, Liviya esa Italiya boshqaruvi ostida bo'lgan. Mustamlaka davri ushbu mamlakatlarning zamonaviy davlat institutlarini shakllantirishda ahamiyatli bo'lgan. Yana bir umumiy xususiyat - siyosiy beqarorlik muammosi. Marokash monarxiya tufayli nisbatan barqaror bo'lib qolgan bo'lsa, boshqa to'rtta davlat harbiy to'ntarishlar, xalq qo'zg'olonlari yoki uzoq davom etgan siyosiy inqirozlarni boshdan kechirgan. Masalan, Liviya 2011 yilda Muammar Kaddafiy tizimi ag'darilgandan keyin oradan 14 yil o'tib ham ichki mojarolar va ikki hokimiyatli boshqaruv bilan kurashmoqda. Mavritaniya tarixida bir necha marta harbiy to'ntarishlarni yashadi. Jazoir va Tunis ham Arab bahori davrida va undan keyin sezilarli siyosiy beqarorlikni boshidan kechirdi.

Ushbu davlatlarning siyosiy tizimlari sezilarli farqlarga ega. Marokash - konstitutsion monarxiya, unda qirol katta vakolatlarga ega bo'lib, hukumat, sud va harbiy tizim ustidan nazorat o'rnatgan. Saylanadigan parlament mavjud bo'lsa-da, monarx asosiy qarorlarni qabul qiladi. Jazoir, Tunis va Mavritaniya - respublika boshqaruv tizimiga ega, biroq demokratik boshqaruv darajasi turlicha. Jazoirning siyosiy tizimi harbiylarning ta'siriga kuchli bog'liq. Tunis 2011 yildan keyin mintaqadagi eng muvaffaqiyatli demokratiyalardan biri sifatida qaralgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda demokratik orqaga ketish jarayonini boshdan kechirmoqda. Mavritaniya rasmiy jihatdan islom respublikasi, ammo uzoq yillar avtoritar

² Lisa Anderson. The State and Social Transformation in Tunisia and Libya, 1830-1980. Princeton University Press, 1987, p.351.

³ Yahia H. Zoubir. North Africa: Politics, Region, and the Limits of Transformation. Routledge; 1st edition, 2008, p.420.

boshqaruv muammolariga duch kelgan. Liviya esa o'ziga xos davlat bo'lib, barqaror hukumat tizimiga ega emas. Kaddafiy o'ziga xos Jamaxariya tuzumini o'rnatdi biroq uning rejimi ag'darilgandan so'ng mamlakat raqobatlashayotgan siyosiy guruhlar, qurolli to'dalar va bir-biriga qarshi turuvchi tomonlar tufayli siyosiy beqarorlik ichida qolmoqda.

Siyosatshunos (arabshunos) olim Sh.Yovqochev "g'arblik bo'lmagan davlatlar" nazariyasidan kelib chiqib, arab-musulmon davlatlarining siyosiy tizimini tahlil qilar ekan, siyosiy-mafkuraviy farqlariga qaramasdan arab davlatlari rejimlarining hokimiyatni patriarxal prinsiplarga asoslangan umumiy avtoritarizm tendensiyalariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu siyosiy partiyalar ustidan nazoratning kuchliligida va jamoat tashkilotlariga homiyligida o'z ifodasini topmoqda. Hatto demokratlashtirish borasida nisbatan ilg'or bo'lgan, zamonaviy siyosiy institutlar faoliyat ko'rsatayotgan arab davlatlarida ham avtoritar institutlar va davlat boshqaruvi mexanizmlari ustun mavqeni egallab kelmoqda⁴. Professor Sh.Yovqochev bu boradagi xulosalarini davom etar ekan, arab davlatlarida ayniqsa, Jazoir, Suriya, Tunis, Misrda siyosiy rejimni "liberallashtirish" siyosiy elita va jamiyat birligi va totuvligi uchun qaltis va xatarli ekanligini bildiradi va bunga asosiy sabab islomiy radikal kuchlar ekanligini ko'rsatib o'tadi. Zero islomiy muxolifatchilarni siyosiy sohaga jalb qilish va qonuniylashtirish Misrda J.Nosirga suyuqasd, A.Sadatning o'limiga, Tunisda X.Burgibaning hokimiyatdan ketishi va davlat to'ntarilishiga⁵, 1990-yillarda Jazoirda fuqarolar urushiga, keyinchalik 2011-yilda Liviya va Suriyada fuqarolar urushiga va siyosiy rejimlarning qulashiga olib keldi.

Mintaqaning barcha mamlakatlarining siyosiy tizimlarida alohida rol davlatga tegishli bo'lib, u nafaqat "asosiy islohotchi", balki yirik ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilishda "hakam" bo'lib, mamlakat ichki va tashqi siyosatini deyarli to'liq belgilaydi. Bu Shimoliy Afrika mamlakatlarida davlat sektorining shakllanishi va kengayishi hamda iqtisodiy munosabatlarga davlatning faol aralashuvi bilan bog'liq⁶.

Tadqiqotchi M.Volodinaning ta'kidlashicha, "Shimoliy Afrikada modernizatsiya jarayonlarining yo'nalishi va sur'atlari neopatrimonializm, ya'ni siyosiy hokimiyatning iqtisodiy soha ustidan hukmronligi, kapitalni to'plashda davlatning yetakchi roli, shuningdek, jamiyatni tegishli ijtimoiy-sinfiy qayta qurish kabi hodisalariga mos ravishda rivojlangan"⁷.

⁴ Ёвкочев Ш.А. Влияние ислама на формирование современной политической системы АРЕ. Дисс. на д.п.н. Т., 2009. - С. 100.

⁵ Ёвкочев Ш.А., юкоридаги манба, 100-101 бетлар.

⁶ Володина М. Модернизация в Северной Африке. // Журнал «Мировая экономика и международные отношения». - 2019, том 63, №4. - С. 78-79.

⁷ Володина М. Модернизация в Северной Африке. Ўша манба.

Mintaqa mamlakatlarining siyosiy tizimlarida “kuchli davlat”ning hal qiluvchi roli ularda ko‘pincha milliy rahbar, davlat birligi va davlat hokimiyati davomiyligining timsoli bo‘lgan va keng vakolatlarga ega bo‘lgan davlat rahbarining (prezident, monarx) alohida maqomini o‘rnatilishida o‘z ifodasini topadi. Davlat rahbari asosiy siyosiy qarorlarni qabul qiluvchi hisoblanadi. U mamlakatning ichki va tashqi siyosatini deyarli yakka tartibda va ma‘lum klanlarga, etnik guruhlariga, yirik biznes vakillariga va harbiy muassasalarga mansub bo‘lgan hukmron elita vakillari bilan maslahatlashuvlar orqali shakllantiradi.

Shimoliy Afrika mamlakatlari siyosiy taraqqiyotini belgilab bergan o‘ziga xos xususiyatlardan biri bu yerda klanlar, klanlararo va qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining katta rol o‘ynaganligidir. Hokimiyat ko‘pincha shaxsiy munosabatlarda shakllanadi va jamlanadi, “shaxs hech qachon jamiyatda o‘z-o‘zidan, qarindosh urug‘dan ajralgan holda individual tarzda biron mavqeyga erisholmaydi”⁸.

Shu bilan birga, arab jamiyatlaridagi munosabatlar o‘zlarining mohiyatiga ko‘ra patriarxal bo‘lib qolmoqda, bu esa aholining siyosiy ongiga ta’sir qiladi. Mintaqa mamlakatlari fuqarolari va rahbariyatlari asosan an’anaviy, konservativ qadriyatlarning ta’sirida qolmoqdalar, yetakchi siyosiy partiyalar va rahbarlar o‘zlarining siyosiy dasturlarini diniy, islomiy tamoyillarga, shuningdek, etnik-milliy munosabatlar va an’analarga tayanib, an’anaviy qadriyatlar asosida quradilar.

Shu nuqtai nazardan, mintaqa davlatlari rahbariyatining islomga murojaat qilishlari ko‘pchilikning, ziyolilarning bir qismi va jamiyatning boshqa qatlamlarining dindorligi bilan hisoblashish zarurati bilan bog‘liq. Arab-musulmon davlatlaridagi din aholini siyosiy safarbar qilish vositasi sifatida ishlatiladi⁹. Xususan, Jazoirda u mamlakatning zamonaviy tarixining turli davrlarida millatchilik siyosiy mafkurasining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritgan. 1976 yilda Jazoir demokratik respublikasi milliy xartiyasida islomga alohida bo‘lim ajratilgan¹⁰. Shu bilan birga, davlat rahbariyati tomonidan islomga murojaat qilish asosan muxolifat tomonidan qabul qilingan siyosiy islomga qarshi turish zarurati bilan bog‘liq edi¹¹.

Mintaqa davlatlarining tarixiy xususiyatlari va notekis ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ularda rivojlangan davlat boshqaruvi va konstitutsiyaviy rivojlanish uslublarga ta’sir ko‘rsatdi. Arab dunyosining ko‘plab mamlakatlarida konstitutsiyaviy rivojlanish ularning birinchi asosiy qonunlarida davlat suvereniteti

⁸ Сапронова М.А. Основные черты и особенности функционирования политических систем арабских стран // Политические системы и политические культуры Востока. Под ред. профессора А.Д.Воскресенского. — 2-е изд. перераб. и доп. — М: АСТ: Восток — Запад, 2007. - С. 141.

⁹ Сборник «Ислам в современной политике стран Востока. Конец 70-х-начало 80-х годов XX века». - Ред. Ким Г.Ф., Беленький А.Б. и др. - Главная редакция Восточной литературы. - М., 1986 г. - Глава VIII. - С. 230.

¹⁰ Национальная хартия Алжирской Народной Демократической Республики, 1976. - М., 1976. - С. 31-32.

¹¹ Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. - Институт востоковедения Российской Академии наук. - М., 1996 г. - С. 267.

va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashdan boshlandi. Bu JXDR, shuningdek, Tunisda sodir bo'lgan. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, aksariyat arab mamlakatlarida, xususan, Shimoliy Afrika mamlakatlarida siyosiy tizim tamoyillari va tuzilishining rivojlanmaganligi va konservativligi tufayli yangi konstitutsiyaviy islohotlar siyosiy rivojlanish va mamlakat ichidagi siyosiy kuchlarning keng harakati natijasida emas, balki "hokimiyatning yuqori qatlamlarida ma'lum bir konsensus", "ichki siyosiy kuchlarning almashinuvi yoki yangi siyosiy guruhlarining hokimiyatga kelishi" bilan sodir bo'ladi¹².

Shimoliy Afrika respublikalarining yana bir muhim xususiyati dastlab parlamentarizm elementlariga ega bo'lgan avtoritar xarakterdagi bir partiyali tizimning shakllanishi edi. Bu xususiyat iqtisodiy xarakterdagi masalalarni hal qilish, shuningdek, ijtimoiy, etnik, konfessional va boshqa ziddiyatlarning murakkab majmuini hal qilish uchun davlat hokimiyatini kuchaytirish zarurati bilan bog'liq edi. Bu omillar davlat rahbarining jamiyat va davlat hayotining asosiy sohalarida deyarli nazorat qilib bo'lmaydigan vakolatlarga ega bo'lishiga olib keldi.

Shu bilan birga, Arab Mag'ribi davlatlarida mustaqillikdan keyingi davrda harbiylarning roli va ta'sirining kuchayishi va avtoritar tizimlarning shakllanishi, shuningdek, jamiyatning keskin bo'linish tendensiyalarini aks ettiruvchi siyosiy elitaning ommadan uzoqda va fuqarolar oldida hisobdor emasligi bilan ajralib turadi. Bu holatlar 2010-yil oxirida boshlangan "Arab bahori" deb nom olgan norozilik to'loqida mintaqa davlatlari siyosiy tizimlarining nechog'liq mustahkam emasligini ko'rsatdi.

Arab bahori 2010-2011-yillarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida sodir bo'lgan norozilik namoyishlari va qo'zg'olonlar to'loqini bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning yig'indisi natijasida yuzaga keldi. Arab bahorining asosiy sabablaridan biri uzoq muddatli avtoritar rejimlarning davom etishi edi. Siyosatshunos Liza Anderson yozganidek, uzoq yillik avtokratik boshqaruv jamoatchilikning siyosiy jarayonda ishtirok etish imkoniyatini chekladi. Tunis, Misr va Liviya kabi ko'plab arab davlatlarida hokimiyat rahbarlari butun siyosiy qudratni o'z qo'llarida jamlagan va repressiya hamda homiylik tarmoqlari orqali o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilgan. Ushbu avtoritar boshqaruv ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan norozilik kayfiyatiga sabab bo'ldi¹³.

Iqtisodiy inqiroz va o'sib borayotgan tengsizlik ham Arab bahori vujudga kelishining muhim omillaridan biri edi. Mutaxassislar iqtisodiy noto'g'ri boshqaruv,

¹² Сапронова М.А. Основные черты и особенности функционирования политических систем арабских стран. Ўша манба 141 бет.

¹³ Lisa Anderson. Demystifying the Arab Spring: Parsing the Differences Between Tunisia, Egypt, and Libya. Foreign Affairs; New York Vol.90, Iss.3, 2011, pp.2-7.

yuqori ishsizlik darajasi va korrupsiya jamoatchilik orasida norozilikni kuchaytirganini e'tirof etadi¹⁴. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasidagi ko'plab mamlakatlar aholisi tez sur'atlarda o'sib borayotgan bir paytda ish o'rinlari yetarlicha yaratilmagan, ayniqsa oliy ma'lumotli yoshlar orasida ishsizlik keskin muammoga aylangan. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan iqtisodiy islohotlar ko'pincha ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirgan: elita manfaat ko'rgan bo'lsa-da, quyi va o'rta sinf aholisi qiyinchiliklarga duch kelgan. Tunisda Muhammad Buazizi o'zini yoqib yuborishi aynan ushbu iqtisodiy qiyinchiliklarning timsoliga aylandi va ommaviy noroziliklarga turtki berdi.

Yana bir asosiy omil raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning roli bo'ldi. Tadqiqotchi Manuyel Kastels yozganidek, Facebook va Twitter kabi ijtimoiy platformalar faollar uchun axborot tarqatish, qo'llab-quvvatlashni safarbar etish va namoyishlarni muvofiqlashtirish vositasiga aylangan¹⁵. Oldingi qo'zg'olonlardan farqli o'laroq, bu raqamli vositalar real vaqt rejimida muloqot qilish va hukumat repressiyasini global auditoriyaga namoyish etish imkonini berdi, bu esa avtoritar rahbarlarga nisbatan xalqaro bosimni kuchaytirdi.

Arab bahori Jazoirning ijtimoiy-siyosiy muhitiga chuqur, ammo bilvosita ta'sir ko'rsatdi. Tunis, Liviya va Misrda rejim almashinuvi sodir bo'ldi. Marokashga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, bu ta'sir nazorat ostida bo'ldi. 2011-yil fevral oyida minglab marokashliklar "20-fevral harakati" doirasida ko'chalarga chiqib, demokratik islohotlar, ijtimoiy adolat va korrupsiyaga barham berishni talab qilishdi. Qirol Muhammad VI ben al-Xasan norozilik namoyishlarini mohirona boshqarib, 2011-yil iyul oyida yangi konstitutsiya taklif qildi va parlament hamda bosh vazirga ko'proq vakolatlar berildi¹⁶. Shu bilan vaziyat nazorat ostiga olindi. Biroq, Liviya va Suriyada vaziyat izdan chiqib ketdi va ushbu mamlakatlar fuqarolar urushi girdobiga g'arq bo'ldi. Siyosatshunos (arabshunos) M.Muhammadsidiqovning yozishicha, Jazoir, Marokash, Livan, Sudanda kuchli ijtimoiy-siyosiy larzalarga qaramay ushbu davlatlar immunitet ishlab chiqdi. Bu davlatlarda noroziliklar faqat vaqti vaqti bilan takrorlanadigan tusga kirib, siyosiy tizim o'zgarishiga emas, uning salgina zamonaviy realiyalarga ko'nikishga olib keldi. Masalan, Jazoirdagi ijtimoiy-siyosiy larzalar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga asoslangan edi. Bu hodisalar qo'shni Tunis va Misrdagi ko'tarilishlar zanjiri sifatida emas, mamlakatda mahsulotlar narxining oshishi bilan bog'liq edi. Shu bois ham namoyishchilar siyosiy talablar bilan emas,

¹⁴ Marc Lynch. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. PublicAffairs; 2013, p.304.

¹⁵ Manuel Castells. Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age. Polity; 2nd edition, 2015, p.328.

¹⁶ Ahmed Benchemsi. Morocco: Outfoxing the Opposition. Journal of Democracy 23(1), 2012, pp.57-69.

ishsizlik, narxlarning oshishi, past oylik ish haqlari, yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari, soliqlarning ko'tarilishi kabi ijtimoiy muammolarni olib chiqqan edi¹⁷.

Darhaqiqat, Arab Mag'ribi mintaqasi davlatlari chuqur ildiz otgan iqtisodiy tengsizlikka duch kelmoqda. Bu holat ijtimoiy norozilikni kuchaytirib, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarmoqda. Ulkan tabiiy resurslar va strategik geosiyosiy joylashuvga ega bo'lishiga qaramay, mintaqa resurslarning adolatsiz taqsimlanishi, ishsizlik va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar muammosi bilan kurashmoqda. Yuqorida tilga olingan siyosatshunoslar bir masalada umumiy fikrga ega: Mag'ribdagi iqtisodiy tengsizlik nafaqat moliyaviy masala, balki boshqaruv tizimi, tarixiy holatlar, diniy omillar va tashqi ta'sirlar bilan bog'liq tarkibiy muammo hisoblanadi. Ushbu tengsizlik ijtimoiy taranglikni kuchaytirib, siyosiy institutlarni zaiflashtiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

Samuyel Hantington iqtisodiy tafovutlar aholining boshqaruvni adolatsiz deb qabul qilishi odatda demokratik to'lqinlar yoki norozilik harakatlariga sabab bo'lishini aytib o'tadi¹⁸. 2011-yilda Tunisda boshlangan Arab bahori bunga yaqqol misol bo'lib, yoshlarning yuqori darajadagi ishsizligi va daromad tafovutlari ommaviy namoyishlarni keltirib chiqargan edi. Ba'zi Mag'rib davlatlari siyosiy islohotlar bilan javob bergan bo'lsa-da, iqtisodiy tengsizlik hal etilmagan holda qolmoqda va bu esa beqarorlik va noroziliklarning davom etishiga olib kelmoqda.

Daron Ajemo'g'lu va Jeymes A. Robinson "Mamlakatlar tanazzuli" asarida iqtisodiy tengsizlikning sababi sifatida faqat elitalarga foyda keltirib, ko'pchilikni chetga surib qo'yadigan ekstraktiv institutlar qayd etiladi. Mag'rib mintaqasida oligopol tuzilmalari va korrupsiya resurslarning adolatli taqsimlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, Jazoir neft daromadlariga juda bog'liq bo'lib qolgan va bu asosan hukmron elita manfaatiga xizmat qiladi, xalqning katta qismi esa ishsizligicha qolmoqda.

Tadqiqotchi Franchesko Kavatoria iqtisodiy norozilikning siyosiy repressiya bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi¹⁹. Marokash qirolligi ijtimoiy keskinliklarni yumshatish uchun iqtisodiy liberallashtirish siyosatini o'tkazishga harakat qilgan bo'lsa-da, shahar va qishloq aholi o'rtasidagi strukturaviy tengsizliklar saqlanib qolmoqda. 2016-yilgi Hirak Rif namoyishlari iqtisodiy kamomadlar va davlat investitsiyasining yetishmovchiligi sabab yuzaga kelgan bo'lib, iqtisodiy muammolar hal etilmaganda qanday qilib ijtimoiy norozilik paydo bo'lishini

¹⁷ Мухаммадсидиков М.М. Африка араб давлатларида диннинг сиёсийлашуви ва унинг сиёсий жараёнларга таъсири. Дисс. с.ф.д. Т., 2018. - Б. 113.

¹⁸ Samuel P. Huntington. The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century. University of Oklahoma Press, 1993, p.384.

¹⁹ Andrea Teti, Pamela Abbott, Francesco Cavatorta. The Arab Uprisings in Egypt, Jordan and Tunisia: Social, Political and Economic Transformations. Springer, 2017, p.142.

ko'rsatadi. Marokash o'z qo'shnilari bilan solishtirganda nisbatan barqaror bo'lsa-da, rivojlanishdagi nomutanosibliklar va tengsizlik vaqti-vaqti bilan noroziliklarga sabab bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy norozilikning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari ichki beqarorlik bilan cheklanib qolmaydi. Tadqiqotchi Luiza Fosett o'z asarida iqtisodiy tafovutlarning davlat institutlarini zaiflashtirib, ularni tashqi ta'sirlarga ko'proq moyil qilishini e'tirof etadi²⁰. Tashqi kuchlar ijtimoiy noroziliklardan o'z strategik manfaatlari yo'lida foydalanib, mintaq boshqaruvini yanada murakkablashtirmoqda. Masalan, Liviyada siyosiy bo'linish xorijiy davlatlarni, jumladan, Turkiya va Rossiyaning mamlakat ichki ishlariga aralashtirib, iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirgan va mojarolarni uzoq davom etishiga sabab bo'lgan.

Arab Mag'ribidagi migratsiya iqtisodiy-ijtimoiy qiyinchiliklar, siyosiy beqarorlik va qo'shni mintaqalardagi mojarolar natijasida sodir bo'ladi. Migratsiya sohasida ko'plab muhim ilmiy ishlar olib borgan Stiven Kaslz va Mark J. Millerning fikriga ko'ra, Shimol va Janub global mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar kuchli migratsiya to'lqinini yuzaga keltiradi²¹. Siyosiy beqarorlik migratsiya tendensiyalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. 2011-yilgi Arab bahori qo'zg'olonlari boshqaruv inqirozlariga olib keldi, ayniqsa Liviya noqonuniy migratsiya markaziga aylandi. Zero, davlat boshqaruvining samarasizligi va zaif chegara nazorati migratsiya oqimlarini kuchaytiradi²². Liviyada davlat tizimining qulashidan so'ng odam savdosi migrantlar hisobiga kuchaydi va Liviyani Yevropaga asosiy tranzit yo'nalishiga aylantirdi.

Malakali va malakasiz ishchi kuchining katta hajmdagi chiqib ketishi Arab Mag'ribi jamiyatlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Xayn de Xaas ta'kidlaganidek, migratsiya ishsizlik bosimini kamaytirishi mumkinligini, biroq oliy ma'lumotli mutaxassislarning yo'qolishi mahalliy iqtisodiyotlarni zaiflashtiradi²³. Bu sog'liqni saqlash, ta'lim va texnologik taraqqiyotga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qaytib kelayotgan migrantlar va Arab Mag'ribida yashayotgan Sahroi Kabirning janubiy hududlaridan kelgan migrantlarining soni ortib borayotgani yangi ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Jazoir va Tunisda migrantlar ko'pincha ksenofobiyaga duch keladilar so'nggi yillarda jamoatchilik fikri yanada dushmanona tus olgan. Bunday keskinliklar zo'ravonlik va siyosiy beqarorlikka olib kelishi

²⁰ Louise Fawcett. International Relations of the Middle East. Oxford University Press; 5th edition, 2019, p.496.

²¹ Hein de Haas, Mark J. Miller., Stephen Castles. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. The Guilford Press; Sixth edition, 2020, p.443.

²² Myron Weiner. The Global Migration Crisis: Challenge to States and to Human Rights. Harpercollins College Div, 1995, p.253.

²³ Kringelbach H.N., Haas H. The myth of invasion Irregular migration from West Africa to the Maghreb and the European Union. History, Political Science, Sociology, 2007, p.83.

mumkin, bu holat Shimoliy Afrikada millatchilik va anti-immigratsiya ritorikasining kuchayishi bilan kuzatilmoqda²⁴.

Noqonuniy migratsiya xavfsizlik tahdidlari, jumladan, terrorizm va uyushgan jinoyatchilik bilan chambarchas bog'liq. Zaif migratsiya boshqaruvi jinoyat tarmoqlarining o'sishiga hissa qo'shadi. Liviyada qurolli guruhlar odam savdosi orqali foyda ko'radi, bu esa mintaqadagi beqarorlikni yanada kuchaytiradi. Tunis va Jazoir ham terrorist guruhlarining chegaralardagi zaifliklardan foydalanib jangarilarni yollashi va qurol olib o'tishi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda²⁵. Mag'rib davlatlari migratsiyani nazorat qilish bo'yicha yevropalik hamkorlarining bosim ostida qolmoqda. Yevropa Ittifoqi Shimoliy Afrika davlatlari bilan hamkorlik kelishuvlarini amalga oshirgan, masalan, 2016-yilda Tunis bilan YEI kelishuv tuzgan bo'lib, uning maqsadi chegara nazoratini kuchaytirishdir. Biroq Ruben Andersson to'g'ri ta'kidlaganidek, bunday siyosatlar migrantlarni yanada xavfli yo'nalishlarga yo'naltiradi va o'lim holatlarini oshiradi, ammo migratsiyaning asosiy sabablarini bartaraf eta olmaydi²⁶.

Migratsiya Mag'rib davlatlarining tashqi aloqalarini ham shakllantirdi. Yevropa davlatlari, xususan, Fransiya, Italiya va Ispaniya Shimoliy Afrika hukumatlari bilan iqtisodiy va xavfsizlik bo'yicha hamkorlikni kuchaytirdi. Jazoir va Marokash o'zaro raqobatchi bo'lishiga qaramay Yevropa Ittifoqi bilan migratsiya boshqaruvi bo'yicha hamkorlik qilmoqda, ammo ularning yondashuvlari sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, Mag'rib davlatlari Sahroi Kabirning janubiy qismidagi Afrika mamlakatlaridan migrantlar huquqlariga rioya qilish bo'yicha bosim olmoqda. Afrika Ittifoqi Marokash va Jazoirni ko'proq inklyuziv migratsiya siyosatini amalga oshirishga chaqirgan, biroq mahalliy qarshilik kuchli bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, milliy suverenitet va xalqaro majburiyatlarni muvozanatlash Shimoliy Afrika hukumatlari uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda²⁷.

Arab Mag'ribi davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida gender tengligi masalasi muhim ahamiyatga ega. Mintaqaning ba'zi davlatlari genderga oid huquqiy islohotlar borasida sezilarli yutuqlarga erishdi, ayniqsa Tunis va Marokash. Tunisning 1956-yilda qabul qilingan "Shaxsiy maqom kodeksi" ko'pxotinlikni bekor qildi va ayollarga asosiy huquqiy imkoniyatlar berdi. Tunis 2011-yilgi inqilobdan so'ng, 2014-yil saylov ro'yxatlarida gender pariteti qonunini qabul qildi, bu esa ayollarning

²⁴ Мадаминова Д.И. Яқин Шарқдаги миграцион жараёнларнинг араб давлатлари хавфсизлиги ва барқарорлигига таъсири. Автореферат. Дисс. с.ф.д. Т., 2023.

²⁵ Douglas S. Massey. *Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium*. Oxford University Press, 2005, p.376.

²⁶ 魯本·安德森. 非法公司: 來自非洲的祕密移民如何在歐非各國形成一門好生意 *Illegality, Inc.: Clandestine Migration and the Business of Bordering Europe*. 春山出版有限公司; 1st edition, 2024, p.406.

²⁷ François Crépeau, Idil Atak. *Global Migration Governance: Avoiding Commitments on Human Rights, Yet Tracing a Course for Cooperation*. *Netherlands Quarterly of Human Rights*, 34(2), 2016, pp.110-143.

siyosiy ishtirokini oshirishga yordam berdi²⁸. Marokash 2004-yilda o'zining "Oila kodeksi"ni isloh qilib, ayollarning nikoh va ajrashish huquqlarini kengaytirdi. Biroq Jazoir va Liviya konservativ qarshilik tufayli huquqiy himoya borasida orqada qolmoqda. Jazoirning 1984-yilda qabul qilingan Oila kodeksi hanuzgacha ayollarni erkaklar vasiyligi ostida saqlaydi²⁹, Liviyaning siyosiy beqarorligi esa gender islohotlarini izdan chiqardi. Ushbu huquqiy o'zgarishlarga qaramay, ularning ijrosi katta muammo bo'lib qolmoqda. Siyosatshunos Valentin Mogadam ta'kidlaganidek, qonunlar rivojlangan bo'lsa-da, patriarxal tuzilmalar ularning amalda qo'llanilishini zaiflashtiradi. U haqiqiy gender tengligini ta'minlash uchun siyosiy iroda va institutsional mustahkamlik zarurligini anglatadi³⁰.

Arab Mag'ribi davlatlaridagi ayollarning siyosiy ishtiroki ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar bilan cheklangan bo'lsa-da, ma'lum darajada taraqqiyot kuzatilmoqda. Tunis mintaqada yetakchilik qilib, ayollarning parlamentdagi o'rinlarning 2021-yilda 26 foiz qilib belgilagan³¹. Marokash va Jazoir gender kvotalarini joriy qilgan, biroq vakillik ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lib, real siyosiy ta'sirga ega emas. Liviya'dagi mojarolar va Mavritaniyaning konservativ qadriyatlari esa ayollarning siyosiy faolligini yanada cheklaydi. Siyosatshunos Fotima Sodiqiy arab davlatlarida ayollarning boshqaruvdagi ishtiroki demokratik mustahkamlik uchun muhimligini yoritadi. U gender tengligi siyosiy barqarorlik bilan bog'liq ekanligini, chunki ayollarning ko'proq vakilligi siyosiy qarorlarning xilma-xilligini oshirib, ijtimoiy inklyuziyani kuchaytirishini aytib o'tadi. Shu bilan birga u real vakillik va haqiqiy siyosiy kuchga ega bo'lmagan ayollar ishtiroki patriarxal tizimlarni mustahkamlash xavfini vujudga keltirishi haqida ogohlantiradi³².

Gender tengsizlik iqtisodiy ishtirokda ham yaqqol namoyon bo'lib, Arab Mag'ribi ayollari ish joylarida kamsitilish, ish haqi tafovutlari va tadbirkorlik imkoniyatlarining cheklanganligi bilan duch kelishmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, Arab Mag'ribidagi ayollar ishchi kuchidagi ulushi o'rtacha 25 foizni tashkil etadi, bu esa global o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past³³. Ayollarga nisbatan huquqiy to'siqlar, masalan, erkaklarga ustunlik beruvchi qonunlar, harakat erkinligiga qo'yilgan ijtimoiy cheklovlar iqtisodiy tafovutlarni yanada

²⁸ Tunisia Tramples Gender Parity Ahead of Parliamentary Elections <https://www.hrw.org/news/2022/11/02/tunisia-tramples-gender-parity-ahead-parliamentary-elections>

²⁹ Salhi Z.S. Algerian Women, Citizenship, and the "Family Code." *Gender and Development*, 11(3), 2003, pp.27-35.

³⁰ Valentine M. Moghadam. *Modernizing Women: Gender and Social Change in the Middle East*. Lynne Rienner Publishers, Inc.; 3rd edition, 2013, p.350.

³¹ Women in parliament: Which countries are making progress? <https://www.context.news/socioeconomic-inclusion/women-in-parliament-which-countries-are-making-progress>

³² Fatima Sadiqi. *Women and Knowledge in the Mediterranean*. Routledge; 1st edition, 2013, p.265.

³³ Labor force, female (% of total labor force) - Middle East & North Africa <https://data.worldbank.org/indicator/SL.TLF.TOTL.FE.ZS?locations=ZQ>

chuqurlashtiradi. Siyosiy iqtisodchi Ayli Tripp iqtisodiy inklyuziya siyosiy o'zgarishlarning ham sababchisi, ham natijasi ekanligini e'tirof etadi. U hukumatlar xalqaro e'tirofga erishish uchun gender islohotlarini targ'ib qilishini, biroq mavjud kuch dinamikasiga tahdid soladigan chuqur tarkibiy o'zgarishlardan qochishini tahlil qiladi³⁴.

Arab davlatlarida chuqur ildiz otgan patriarxal meyorlar katta to'siq bo'lib qolmoqda. Gender rollariga oid ijtimoiy qarashlar islom dinining konservativ talqinlari va an'anaviy urf-odatlardan ilhom oladi. Garchi feminist harakatlar kuchayib borsa-da, diniy konservatorlar va millatchi guruhlar tomonidan kuchli qarshilik mavjud. Tadqiqotchi Nade Al-Ali "Gender, Governance and Islam" kitobida Arab Mag'ribida gender tengligi ko'pincha siyosiylashib ketishini tahlil qiladi, chunki ayollar huquqlari bo'yicha bahslar sekulyaristlar va islom dini tarafdorlari o'rtasidagi mafkuraviy kurash maydoniga aylanadi. U avtoritar rejimlar ayollar huquqlari ritorikasini haqiqiy tenglikni targ'ib qilish emas, balki davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun ishlatishini ta'kidlaydi³⁵.

Arab Mag'ribi davlatlarining ijtimoiy-siyosiy tizimidagi muhim omillardan biri mustamlakachilik o'tmishi va mustamlakachilik asoratlari bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Mintaqa davlatlarining ko'pchiligi mustamlaka boshqaruvidan zaif institutlarni meros qilib olgan va keyinchalik markazlashgan, avtoritar boshqaruv tizimlarini rivojlantirib, elitalar orasida rent-seeking (foyda izlash) xatti-harakatlarini rag'batlantirgan. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika rejimlari ko'pincha korrupsiyani siyosiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida ishlatib, sodiq elitalarni mukofotlab, muxolifatni bostirishga harakat qiladi³⁶. Bu holat Arab Mag'ribida ham yaqqol ko'rinadi, bu yerda hukmron partiyalar va harbiy elitalar muhim iqtisodiy sektorlarni nazorat qiladi va homiylik tarmoqlari orqali o'z hukmronligini mustahkamlaydi. Masalan, Marokash va Jazoirida siyosiy elitalar va biznes manfaatlarini bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Jazoirning davlatga qarashli neft va gaz sektori uzoq yillardan beri korrupsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelgan, 2010-yildagi Sonatrach ishi davlat amaldorlari tomonidan keng miqyosda o'zlashtirish holatlarini ochib bergan³⁷. Livianing Kaddafiy rejimidan keyingi o'tish jarayoni ham korrupsiya bilan bog'liq muammolar bilan to'lib-toshgan, chunki zaif boshqaruv tuzilmalari sharoitida harbiy qo'mondonlar va qurolli guruhlar resurslarni nazorat qilish uchun korrupsiyadan

³⁴ Aili Mari Tripp. Seeking Legitimacy: Why Arab Autocracies Adopt Women's Rights. Cambridge University Press, 2019, p.334.

³⁵ Kandiyoti D., Al-Ali N., & Poots K.S. (Eds.). Gender, Governance and Islam. Edinburgh University Press, 2019, p.240.

³⁶ Daniel Brumberg. Reinventing Khomeini: The Struggle for Reform in Iran. University of Chicago Press; 1st edition, 2001, p.318.

³⁷ Energy giant Sonatrach hit by corruption scandal, <https://www.france24.com/en/20100118-energy-giant-sonatrach-hit-corruption-scandal>

foydalanmoqda. Mavritaniya davlat amaldorlarining xorijiy yordam va tabiiy resurslar daromadlarini talon-taroj qilishi bilan bog'liq keng ko'lamli korrupsiya muammosiga duch kelmoqda.

Korrupsiyaning eng og'ir oqibatlaridan biri bu davlat institutlariga bo'lgan jamoatchilik ishonchining yemirilishidir. Fuqarolar davlatni korrupsiyaga botgan elita manfaatlarini himoya qiluvchi tuzilma sifatida qabul qilib, uni jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi tizim sifatida ko'rmay qo'yadi. Bu haqida siyosatshunos Juan Linz, siyosiy tizimlarning barqarorligi uchun legitimlik muhim ahamiyatga ega va agar korrupsiya ustunlik qilsa, siyosiy institutlar o'z ishonchliligini yo'qotib, ijtimoiy norozilikka olib keladi, deb yozadi³⁸. Tunisning 2011 yilgi inqilobi ham aynan prezident Zayn al-Abidin bin Alining korrupsiyalashgan rejimiga bo'lgan ommaviy g'azab natijasida yuzaga kelgan.

Korrupsiya davlat resurslarini ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma kabi muhim xizmatlardan chetga yo'naltirib, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni yanada chuqurlashtiradi. Arab Mag'ribi davlatlarida korrupsiyaning yuqori darajasi xususiy sektor rivojlanishini sekinlashtirib, xorijiy investitsiyalarni kamaytirgan va ishsizlik darajasini oshirgan. Masalan Marokashda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ko'pincha pora berish talab qilinadi, bu esa yangi bizneslarni ochishni qiyinlashtiradi. Liviyada esa neft sektoridagi korrupsiya yirik iqtisodiy resurslarning samarasiz boshqarilishiga olib kelgan, natijada aholi ushbu boylikdan yetarli darajada foydalana olmagan. Mavritaniyada esa korrupsiya bilan bog'liq yer taqsimoti amaliyotlari ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirib, yer nizolari va iqtisodiy kamsitishlarga sabab bo'lgan.

Korrupsiya davlat institutlarini zaiflashtirib, ularni ijtimoiy muammolarni hal qilish va siyosiy barqarorlikni saqlashda samarasiz qiladi. Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan va huquq ustuvorligi zaif bo'lgan davlatlar samarali boshqaruv tizimini barpo eta olmasligini va bu holat natijada siyosiy beqarorlikka olib kelishi ko'p kuzatiladi. Liviyada korrupsiya turli guruhlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, Kaddafiy tizimi ag'darilgandan beri davlatni barpo etish harakatlarini izdan chiqarmoqda. Ochiq va shaffof boshqaruv tizimining yo'qligi qurolli guruhlarining davlat resurslarini ekspluatatsiya qilishiga imkon yaratgan, bu esa ichki bo'linishlarni chuqurlashtirib, mojarolarni uzaytirgan. Jazoirda xavfsizlik sektoridagi korrupsiya muhim demokratik islohotlarning oldini olib, harbiy elitalarning hokimiyatda qolishiga xizmat qilmoqda, fuqarolik jamiyati harakatlarini esa cheklamoqda.

³⁸ Juan J. J. Linz. Problems of Democratic Transition and Consolidation: Southern Europe, South America, and Post-Communist Europe. Johns Hopkins University Press, 1996, p.504.

Korrupsiya siyosiy ekstremizmni ham kuchaytiradi, chunki u fuqarolarni rasmiy siyosiy tuzilmalar bilan aloqalarini uzishga va muqobil guruhlariga, radikal tashkilotlarga qo'shilishiga turtki beradi. Tadqiqotchi Luiz SHelley korrupsiya ekstremistik guruhlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishini, chunki ular jamoatchilik noroziligidan foydalanib, zaif boshqaruv sharoitida o'z tarafdorlarini yollashini bayon qiladi. Xususan, Arab Mag'ribida Al-Qoida Mag'rib islomiy davlati va ISHID bilan bog'liq guruhlar korrupsiyaga qarshi jamoatchilik noroziligidan foydalanib, o'z saflariga yoshlarni jalb qilmoqda. Tunisda yoshlar ishsizligi va siyosiy elitadagi korrupsiyaga bo'lgan norozilik ayrim yoshlarning ekstremistik tarmoqlarga qo'shilishiga olib kelgan. Liviyada esa hukumat nazoratidagi harbiylar orasidagi korrupsiya terror guruhlarining erkin faoliyat yuritishiga imkon berib, ular pora orqali qurol va jangchilarni yashirincha o'tkazmoqda³⁹.

Bu muammolarga qaramay, ayrim Mag'rib mamlakatlari korrupsiyaga qarshi kurashda harakat qilmoqda. Tunis Milliy Korrupsiyaga qarshi organini tashkil etgan, ammo siyosiy qarshilik uning samaradorligini pasaytirmoqda. Marokash korrupsiyaga qarshi strategiyalarni ishga tushirgan, lekin yuqori martabali elitalarning aralashuvi natijasida qonunlar sust amalga oshirilmoqda. Jazoirida shaffoflik qonunlari qabul qilingan bo'lsa-da, real javobgarlik tizimi hanuzgacha yo'lga qo'yilmagan. Siyosatshunos Alina Mungiu-Pippidi korrupsiyaga qarshi islohotlar faqat fuqarolik jamiyati hukumat harakatlarini nazorat qilib, yetakchilarni javobgarlikka tortgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishini ochib beradi⁴⁰. Jazoiridagi Hirak harakati va Tunisning inqilobdan keyingi fuqarolik jamiyati faolligi shaffoflik talab qilish uchun quyi darajadan bosim o'tkazish imkoniyatini namoyish etadi.

Xulosa qilib aytganda, Arab Mag'ribi davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar iqtisodiy muammolarni hal qilish, daromadlar tengsizligini kamaytirish, ishsizlik bartaraf etish, ta'lim tizimini yaxshilash, gender tengligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash, demokratik institutlarni rivojlantirish va boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish, turli etnik va diniy guruhlarining konsolidatsiyasini ta'minlash, diniy radikalizmni oldini olish kabi bir qancha muammolarni o'zida aks ettiradi. Ba'zi mag'rib davlatlari ushbu muammolarni hal qilib, ijobiy natijalarga erishmoqda, ba'zilarida esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarang holatda qolmoqda.

³⁹ Louise I. Shelley. *Dirty Entanglements: Corruption, Crime, and Terrorism*. Cambridge University Press, 2014, p.386.

⁴⁰ Alina Mungiu-Pippidi. *The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption*. Cambridge University Press, 2015, p.312.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zartman I. William. *Man, State and Society in the Contemporary Maghreb*. Pall Mall Press, 1973.
2. Anderson Lisa. *The State and Social Transformation in Tunisia and Libya, 1830–1980*. Princeton University Press, 1987.
3. Zoubir Yahia H. *North Africa: Politics, Region, and the Limits of Transformation*. Routledge, 2008.
4. Ёвкочев Ш.А. *Влияние ислама на формирование современной политической системы АРЕ*. Дисс. д.п.н. – Т., 2009.
5. Володина М. Модернизация в Северной Африке // *Мировая экономика и международные отношения*. – 2019. – №4.
6. Сапронова М.А. Основные черты и особенности функционирования политических систем арабских стран // *Политические системы и политические культуры Востока*. – М., 2007.
7. Anderson Lisa. Demystifying the Arab Spring: Parsing the Differences Between Tunisia, Egypt, and Libya // *Foreign Affairs*. 2011.
8. Lynch Marc. *The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East*. PublicAffairs, 2013.
9. Castells Manuel. *Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age*. Polity Press, 2015.
10. Huntington Samuel P. *The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century*. University of Oklahoma Press, 1993.
11. Acemoglu D., Robinson J. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty*. Crown Publishing, 2012.
12. Fawcett Louise. *International Relations of the Middle East*. Oxford University Press, 2019.
13. Castles Stephen, Miller Mark J. *The Age of Migration*. Guilford Press, 2020.
14. Moghadam Valentine M. *Modernizing Women: Gender and Social Change in the Middle East*. Lynne Rienner Publishers, 2013.
15. Shelley Louise I. *Dirty Entanglements: Corruption, Crime, and Terrorism*. Cambridge University Press, 2014.
16. Mungiu-Pippidi Alina. *The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption*. Cambridge University Press, 2015.